

BUYRAKLARNING TUZILISHI VA BIOLOGIK AHAMIYATI

Pardayeva Zilola Furqat qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

Inson organizmida har bir a'zoning o'ziga xos vazifasi mavjud bo'lib, ularning har biri tananing umumiy sog'lig'ini saqlab turishda muhim rol o'ynaydi. Shunday a'zolardan biri — buyrakdir. U tanadagi asosiy chiqaruv (ekskretor) a'zo bo'lib, ortiqcha suyuqlik va zararli moddalarni ajratib chiqarish orqali organizm ichki muhitining barqarorligini saqlab turadi.

Buyraklar inson tanasida ikkita bo'lib, bel sohasida, umurtqa yonida joylashgan. Tashqi tomondan ular loviya donasiga o'xshaydi. Har bir buyrakning tuzilishi murakkab bo'lib, uning asosiy birligi nefron hisoblanadi. Nefronlar buyrakning asosiy ishlovchi qismi bo'lib, har bir buyrakda taxminan 1 millionga yaqin nefron mavjud. Nefronlar orqali qon filtrlab tozalanadi, foydali moddalar qayta so'riladi, zararli va ortiqcha suyuqlik esa siydik holida chiqariladi.

Buyraklar nafaqat chiqaruv tizimida, balki organizmdagi suyuqlik, elektrolitlar va kislota-ishqor muvozanatini saqlashda, shuningdek, qon bosimini me'yorda ushlab turishda ham muhim ahamiyatga ega. Ular qon tarkibidagi kislorod darajasiga qarab maxsus gormon — eritropoetin ishlab chiqaradi, bu gormon esa suyak ko'migidagi qizil qon tanachalarining hosil bo'lishini rag'batlantiradi.

Buyrak faoliyatidagi buzilishlar (masalan, buyrak toshlari, yallig'lanishlar yoki yetishmovchiligi) butun organizm faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli buyrak sog'lig'iga e'tiborli bo'lish, yetarli suyuqlik ichish va zararli moddalarni cheklash orqali ularni asrash muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, buyraklar organizmda hayotiy muhim vazifalarni bajaradigan a'zolardan bo'lib, ularning to'g'ri ishlashi inson salomatligining asosi hisoblanadi.